

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 60 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISH VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH	48
Xodjimatov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	



TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR



Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich

International school of finance technology and science (ISFT) mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada mahalliy tijorat banklarining kredit siyosati talablari va ular asosida shakllangan portfelning tuzilmasi, sifat tasnifi, kreditlarning me'yorlar asosida diversifikatsiyalanganlik darajasi, ularga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi omillar, kreditlash faoliyatining samaradorligi hamda daromadlilikini aniqlashda foydalaniladigan ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Shuningdek, portfelni prognozlashtirish imkoniyatlari, mavjud kamchilik va muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish orqali kredit portfeli sifatini yaxshilash yo'llari o'rganilgan. Xalqaro va xorijiy tajribalar asosida xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kredit, kredit siyosati, kredit portfeli, diversifikatsiya, kredit tamoyillari, kredit ta'minoti, ehtimoliy yo'qotishlar maxsus zahirasi, ssuda, kredit riski, portfel daromadlilik, moliyaviy yo'qotishlar, foiz stavkasi.

Abstract. The article examines the requirements of local commercial banks' credit policies and the structure of the portfolios formed on their basis, the classification of portfolio quality, the degree of credit diversification according to established standards, as well as the factors directly and indirectly affecting them. It also analyzes the indicators used to determine the efficiency and profitability of lending activities, identifies the shortcomings and problems in forecasting portfolio performance, and proposes ways to improve the quality of the credit portfolio by addressing these issues. Conclusions and recommendations are developed based on international and foreign experience.

Keywords: loan, credit policy, loan portfolio, diversification, lending principles, loan collateral, special reserve for possible losses, credit risk, portfolio return, financial losses, interest rate.

Аннотация. В статье исследуются требования кредитной политики местных коммерческих банков и структура портфеля, сформированного на их основе, классификация его качества, степень диверсификации кредитов в соответствии с установленными нормативами, а также факторы, оказывающие прямое и косвенное влияние на него. Рассмотрены показатели, используемые для определения эффективности и доходности кредитной деятельности, возможности прогнозирования портфеля, существующие недостатки и проблемы в этой области, а также пути улучшения качества кредитного портфеля через их устранение. На основе международного и зарубежного опыта разработаны выводы и рекомендации.

Ключевые слова: кредит, кредитная политика, кредитный портфель, диверсификация, принципы кредитования, кредитное обеспечение, специальный резерв на возможные потери, ssuda, кредитный риск, доходность портфеля, финансовые потери, процентная ставка.

KIRISH

Geosiyosiy ziddiyatlar va moliyaviy sanksiyalar sharoitida mahalliy iqtisodiyotda barqaror o'sishni ta'minlash jarayonida iqtisodiyotni moliyalashtirishning yirik manbasi hisoblangan banklar aktivlarining samaradorligini oshirish, xususan kreditlash faoliyati daromadlilikini ta'minlash, shu orqali real sektor faoliyatining barqarorligini mustahkamlash, rejalashtirilgan qiymatni yaratish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, eksport salohiyatidan keng foydalanish hamda import hajmini qisqartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, tijorat banklari kredit portfelining sifati, ularni boshqarishni samarali tashkil etish, risklarni nazorat qilish va ularning



oqibatlarini bartaraf etishdagi qiyinchilik hamda muammolar to'g'ridan-to'g'ri har qanday bankning moliyaviy barqarorligiga, iqtisodiyotni moliyalashtirish hajmini oshirishga qarama-qarshi bo'lgan omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun kredit portfeli samaradorligini oshirish usullari hamda ularga ta'sir etuvchi ijobiy va salbiy omillarni chuqur o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Ta'kidlanganidek, global iqtisodiyot sharoitida jahon moliya bozorida sanksiyalar ko'lamining kengayishi va ta'sir doirasining kengayib borishi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan xalqaro moliyaviy tashkilotlar, jumladan banklar tomonidan ajratilayotgan kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirilgan tarmoqlar, sohalar va alohida loyihalarning hayotiyligini ta'minlash hamda mahalliy banklarning ular oldidagi moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishini kafolatlash jarayonlari tijorat banklari oldiga tobora murakkab vazifalarni qo'yimoqda.

Tijorat banklarining bugungi kundagi kredit portfeli sifatini ta'minlash, uni samarali boshqarish uchun amalda qo'llanilayotgan usullar va choralar yetarli emasligi, ularning foyda rentabelligini bir necha marotaba oshirish zarurligi ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borish muhimligini ko'rsatmoqda.

"The Global Economy.com" saytining ma'lumotlariga ko'ra, milliy iqtisodiyotlarning bank kreditlariga bog'liqlik darajasi rivojlangan mamlakatlarda yuqori. Jumladan, bank aktivlarining YAIMdagi ulushi Yevropa Ittifoqi davlatlaridan Daniyada 169,9 foiz, Fransiyada 131,0 foiz, Ispaniyada 119,7 foiz, Italiyada 115,5 foiz, Germaniyada 96,0 foiz, Xitoyda 214,2 foiz, Malayziyada 153,0 foiz, Yaponiyada 169,6 foiz, Janubiy Koreyada 181,7 foiz, Rossiyada 65,6 foiz, Qozog'istonda esa 30,0 foizni tashkil etadi¹.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida iqtisodiyot hajmini 2030-yilga qadar 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish maqsadida mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish hamda ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish kabi yuksak marralarga erishish yo'lida yangi imkoniyatlarni ochish muhim vazifa sifatida belgilangan².

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari tomonidan kredit portfelini samarali boshqarish, uning daromadliligi, muhimligi, istiqboli, mavjud muammo va kamchiliklari masalasi bir qator ilmiy tadqiqotlarning predmeti sifatida olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xorijiy olimlardan amerikalik iqtisodchilar Kris J. Barlton va Diana MakNoton fikricha, kredit portfeli — bu kreditlarni toifalar bo'yicha tasniflash tizimidir³. Rossiyalik olim O. I. Lavrushin fikricha, "bank ishida kredit portfeli — bu muayyan bankning kreditlari yig'indisi"dir. Shu bilan birga, olimning fikricha, kredit portfelini shakllantirish va tahlil qilish tijorat bankining mijozlarni kreditlashda, ish strategiyasi va taktikasini aniq ishlab chiqish imkoniyatini oshiradi⁴.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh. Z. Abdullayeva "banklarning kredit portfeli — bu turli xil kredit risklariga asoslangan, muayyan mezonlarga ko'ra turkumlangan kreditlar miqyosidagi bank talablarining yig'indisidir", degan ta'rifni ilgari surgan⁵.

Z. A. Umarov, H. H. Otamurodov va I. F. Sayfiddinovlar tadqiqotlari natijasiga ko'ra, "bankning kredit portfeli — bu muayyan tarkibiy tuzilishga ega bo'lgan, o'ziga xos boshqaruv obyekti. U kreditlash yo'nalishlari bo'yicha bankning daromadlilik, risk, likvidlik talablariga, shuningdek, yangi ish o'rinlari va yalpi mahsulot yaratilishini ta'minlash uchun kredit siyosati strategiyasiga muvofiq kreditlash obyektlariga yo'naltirilgan qo'yilmalar majmuidir"⁶.

S. K. Kuzmina va O. A. Arzikulovlarning ta'rifiga ko'ra, "bankning kredit portfeli — bu bank tomonidan kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan miqdor bo'lib, u bank tomonidan berilgan jami kreditlarning yig'indisini ifodalaydi"⁷.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida abstrakt-mantiqiy fikrlash, umumlashtirish, taqqoslash, tahlil va sintez, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan. Tijorat banklarining kredit portfeliga oid statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, taqqoslandi hamda tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar asosida xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

1 https://www.theglobaleconomy.com/rankings/bank_assets

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, 2023-yil 11-sentyabr, PF-158-son Toshkent sh.

3 Sattarov O., Beknazarov E. GEP and its management in commercial banks. Monograph. -T.: EXTREMUM PRESS. 2011 y. - 82 b

4 Arzikulov O. A. Rol malogo biznesa v razvityx stranax//Ekonomika i obshchestvo.-2019.-Net. 12. - S. 30-33

5 Ali oglu A. O. Statisticheskoye issledovaniye neposredstvennogo podderjaniya deyatelnosti malogo biznesa v regionax // EPRA International Journal of Economic and Business Review (JEPR). - 2022. - T. 10. - net. 6. - S. 30-33

6 Umurov Z.A., Otamurodov H.H., Sayfiddinov I.F. MONOGRAFIYA, Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish, Toshkent moliya instituti -T, "Moliya-iqtisod" nashriyoti, 2021. S. 19.

7 Kuzmina S.N., Arzikulov O.A. Metody upravleniya kreditnym portfelem kommercheskix bankov. Vestnik Kokandskogo universiteta, 2023 g. №9. ISSN: 2181-1695. S. 11-16.



TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday mamlakatda banklarning kredit portfelini samarali boshqarishni tashkil etishda bozor mexanizmlarining ahamiyati kredit portfelining daromadliligi va sifati, banklarning moliyaviy barqarorligi, ularning samaradorligini oshirish hamda muammoli kreditlar ulushini kamaytirishga xizmat qilishi bilan baholanadi. Bugungi kunda banklar duch kelayotgan eng jiddiy muammolardan biri — kredit portfeli tarkibida muammoga aylangan kreditlar salmog'ini pasaytirishdir. Tijorat banklarining kredit portfelida mavjud muammoli kreditlar bank tomonidan tanlangan bozor segmentidan tortib, mamlakat iqtisodiyotidagi o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar va jahon moliyaviy muhitidagi tebranishlarga bog'liq holda turli sabablarga ko'ra o'zgarib turadi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda tijorat banklari kredit portfelida muammoli kreditlar (NPL) ulushi⁸ (mlrd.so'm)

Ko'rsatkichlar	01.01.2021 yil	01.01.2022 yil	01.01.2023 yil	01.01.2024 yil	01.01.2025 yil
Jami aktivlar	366 121	444 922	556 746	652 157	769 330
Jami kredit portfeli	276 975	326 386	390 049	471 406	533 121
<i>Shundan ulushi (%)</i>					
Davlat ulushi mavjud banklar	88,3%	85,8%	83,2%	70,7%	68,8%
Boshqa banklar	11,7%	14,2%	16,8%	29,3%	31,2%
Jami muammoli kreditlar (NPL)	5 785	16 974	13 992	16 621	21 185
<i>Shundan ulushi (%)</i>					
Davlat ulushi mavjud banklar	89,3%	88,8%	90,4%	79,8%	67,7%
Boshqa banklar	10,7%	11,2%	9,6%	20,2%	32,3%
Aktivlar tarkibida NPL ulushi	1,6%	3,8%	2,5%	2,5%	2,8%
Kredit portfeli tarkibida NPL ulushi	2,1%	5,2%	3,6%	3,5%	4,0%
<i>Shundan</i>					
Davlat ulushi mavjud banklar	2,1%	5,4%	3,9%	4,0%	3,9%
Boshqa banklar	1,9%	4,1%	2,1%	2,4%	4,1%

Jami banklar kredit portfelida xususiy banklar ulushining so'nggi 5 yilda 3 barobar oshgani ijobiy holat hisoblanadi. Bu, avvalo, davlat tomonidan bank faoliyatiga aralashuvning qisqarishi natijasida kredit portfelini samarali boshqarish imkoniyatining kengaygani va sog'lom raqobat muhitining rivojlangani bilan izohlanadi.

Muammoli kreditlarning so'nggi 5 yilda jami aktivlar tarkibidagi ulushi 2021-yilda pandemiya sababli eng yuqori darajaga yetgan. So'nggi uch yilda esa bu ko'rsatkichda sezilarli o'zgarish kuzatilmagan. Kredit portfeliga nisbatan muammoli kreditlar hajmi 2024-yil yakuni bo'yicha 2022–2023-yillarga nisbatan biroz oshgan bo'lib, uning asosiy qismi xususiy banklar hissasiga to'g'ri kelgan.

Markaziy bank tashabbusi bilan so'nggi yillarda muammoli kreditlarni kamaytirishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bular jumlasiga kredit risklarini kamaytirishga doir chora-tadbirlar, kredit portfelini diversifikatsiyalash, kredit reyting tizimini takomillashtirish hamda qarz oluvchilarning moliyaviy holatini doimiy kuzatish kiradi. Muammoli kreditlarning oldini olish va ularni bartaraf etishning eng maqbul usuli — bu kredit portfelini bozor mexanizmlari asosida boshqarishdir.

Shu bois, tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri tijorat banklari kredit portfelini samarali boshqarishda bozor mexanizmlaridan foydalanish, ularni joriy etishdagi muammolarni aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- kredit portfelini samarali boshqarishda bozor mexanizmlarining bank faoliyatidagi ahamiyatini aniqlash;
- kredit portfelini boshqarishdagi bozor mexanizmlarining mohiyatini ochib berish;
- bozor mexanizmlarini joriy etishdagi muammolarni aniqlash va o'rganish;
- ushbu mexanizmlarni amaliyotda to'laqonli tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Bank rahbariyati tomonidan kredit portfeli bo'yicha strategik rejalarni ishlab chiqishda quyidagi me'yorlar o'rnatilishi zarur:

- kredit portfelining miqdor jihatidan bank balansidagi ulushi;
- kreditlar sifatiga qo'yiladigan talablar;

8 <https://cbu.uz/oz/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

- kredit portfelini diversifikatsiyalash yo'nalishlari;
- bankning moliyaviy natijalariga erishishda kredit portfelining o'rni;
- kreditlar turlari;
- kreditlar salmog'ining o'sish dinamikasi;
- kreditlashda ustunlik beriladigan yo'nalishlar, hududlar va tarmoqlar.

Odatda tijorat banklari muammoli kreditlar (NPL — Non-Performing Loans) salmog'ini kamaytirish maqsadida kreditlarni sotish yoki sek'yuritizatsiya qilish amaliyotidan foydalanadi hamda risk darajasi past bo'lgan kreditlarni sotib olishga intiladi.

Ko'pincha kredit to'lovlarining 90 kundan ortiq kechiktirilishi ushbu kreditning muammoli sifatida tan olinishiga sabab bo'ladi. Biroq bu muddat kredit shartnomasi shartlariga yoki mamlakatda o'rnatilgan qonunchilik talablariga ko'ra o'zgarishi mumkin.

Muammoli kreditlar natijasida tijorat banklari daromadining pasayishi, zaxiralar hajmining ortishi, likvidlikning kamayishi kabi xavflarga duch keladi. Umuman olganda, bu holat iqtisodiyot miqyosida kreditlash faolligining pasayishiga va iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashishiga olib keladi.

Muammoli kreditlar bilan ishlash jarayoni bir nechta muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Muammoli kreditlarni aniqlash. Kredit portfelini tahlil qilish — to'lov qobiliyati past bo'lgan qarzdorlarni aniqlashning asosiy usuli hisoblanadi. Bugungi kunda IT-platformalar yordamida ushbu jarayon bir necha marotaba tezroq va yuqori aniqlikda amalga oshirilmoqda.

2. Muammoli kreditlarni nazorat qilish strategiyasini ishlab chiqish. Strategiya ishlab chiqish jarayonida qarzdor bilan kreditni restrukturizatsiya qilish yuzasidan muloqot o'tkaziladi. Natijalar asosida qarzning bir qismini zaxiralar hisobidan qoplash yoki to'lov grafigini uzaytirish bo'yicha reja tuziladi.

3. Kollektorlik agentliklari bilan ishlash. Malakali kollektorlar xizmatidan foydalangan holda sudgacha bo'lgan bosqichda qarzdorlikni undirish choralari ko'riladi.

4. Sud tartibida qarzdorlikni undirish. Kredit bo'yicha qarzdorlikni sud mexanizmi orqali undirib olishda kredit ta'minotiga olingan mulklar hisobidan qarz qoplash choralari qo'llaniladi.

5. Tahlil va monitoring. Kredit portfeli doimiy ravishda tahlil qilinadi, to'lov qobiliyati pasaygan qarzdorlarning moliyaviy ahvolini yaxshilashga qaratilgan tegishli tadbirlar amalga oshiriladi.

Muammoli kreditlar salmog'ini kamaytirish kompleks yondashuvni talab etadi va quyidagi usullarni o'zida mujassamlashtiradi:

1. Qarz oluvchilarni tanlab olishda qat'iy mezonlarni qo'llash orqali ularning to'lov qobiliyatini chuqur tahlil qilish.
2. Qarz oluvchining moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, kredit miqdorlariga limitlar o'rnatish.
3. Bank xodimlarini risklarni boshqarish va bartaraf etish bo'yicha muntazam o'qitish.
4. Avtomatlashtirish orqali qarz oluvchining to'lov qobiliyatini prognozlash va muammolarni erta aniqlash.
5. Kredit shartlarini restrukturizatsiya qilish orqali qarzdorning to'lov imkoniyatlariga mos tarzda kredit muddatlarini uzaytirish hamda foiz stavkalarini pasaytirish.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, murakkab iqtisodiy sharoitlarda ham muammoli kreditlarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish imkoniyati mavjud (2-jadval).

2-jadval. Tijorat banklari kredit portfellari yig'indisi sifati tahlili⁹

№	Ko'rsatkichlar	Yillar yakuni bo'yicha qoldiq (mlrd. so'm)				
		2020	2021	2022	2023	2024
1	Jami aktivlar	366 121	444 922	556 746	652 157	769 330
2	Jami kapital	58 351	70 918	79 565	97 079	114 792
3	Jami kredit va mikroqarzl	276 975	326 386	390 049	471 406	533 121
4	O'rtacha oylik foyda (zaxiralar qo'shilgan)	8 033	10 994	17 951	22 100	22 937
5	O'rtacha oylik muammoli kreditlar (NPL)	13 910	17 056	15 521	20 974	21 185
6	Muammoli kreditlarning o'rtacha oylik sof foydada ulushi (%)	173%	155%	86%	95%	92%
7	Jami jalb qilingan depozitlar qoldig'i	114 747	156 190	216 738	241 687	308 692
8	Yuqori likvidli aktivlar	50 476	75 992	104 473	96 909	133 229
9	Tijorat bankining kutilmagan holatda resurs yo'qotishga tayyorligi	227%	206%	207%	249%	232%

9 <https://cbu.uz/oz/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Yuqoridagi 2-jadvalda muammoli kreditlarning o'rtacha oylik sof foydada ulushi hisoblangan. Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, muammoli kreditlarning o'rtacha oylik foydada ulushi respublika tijorat banklari kesimida 2022-yildan boshlab 100 foizdan pastga tushgan bo'lsa-da, hali ham yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bu shuni anglatadiki, muammoli kreditlar bo'yicha risk to'liq qoplanganda ham foydaning 90 foizdan ortiq qismi yo'qotilmoqda.


3-jadval. Tijorat banklari kredit portfelining tarmoqlar kesimida diversifikatsiyasi (hisobot davri boshiga qoldiq)¹⁰

Tarmoqlar	01.01.2021 yil	01.01.2022 yil	01.01.2023 yil	01.01.2024 yil	01.01.2025 yil
Sanoat	37%	36%	32%	30%	29%
Qishloq xo'jaligi	10%	11%	11%	10%	9%
Qurilish sohasi	3%	3%	3%	3%	2%
Savdo va umumiy xizmat	7%	8%	7%	7%	7%
Transport va kommunikatsiya	10%	9%	8%	7%	6%
Moddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish	1,4%	1,2%	1,0%	0,9%	0,8%
Uy-joy kommunal xizmati	1,4%	0,7%	0,5%	0,5%	0,4%
Jismoniy shaxslar	20%	21%	26%	32%	33%
Boshqa sohalar	11%	10%	12%	11%	12%
Jami	100%	100%	100%	100%	100%
Diversifikatsiya darajasi	21%	21%	21%	22%	23%

Yuqorida keltirilgan 3-jadvalda tijorat banklarining kredit portfeli yig'indisi doirasida ularning diversifikatsiya darajasi aks ettirilgan bo'lib, so'nggi yillarda ushbu ko'rsatkichning pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Buning asosiy sababi sifatida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ulushining oxirgi besh yilda keskin oshgani qayd etiladi.

Tarmoqlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich sanoat tarmog'iga to'g'ri keladi — u jami kredit portfelining 29 foizini tashkil etadi. Sanoatning YAIM tarkibidagi ulushi 2024-yilda 26,4 foizni tashkil etishini inobatga olganda, sanoat tarmog'iga yo'naltirilgan kreditlar diversifikatsiya darajasi me'yordan yuqori ekani ko'rinadi.

So'nggi besh yillik dinamikani tahlil qilganda, sanoat tarmog'ining kredit portfelidagi ulushi asta-sekin pasayib borayotgani aniqlanadi va bu holat ijobiy tendensiya sifatida baholanadi, chunki bu tijorat banklarida tarmoqlar bo'yicha risklarni yanada muvozanatlashtirishga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Kredit portfeli ko'rsatkichlarining o'sish suratlari (foizda)¹¹

¹⁰ <https://cbu.uz/oz/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

¹¹ <https://cbu.uz/oz/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqorida keltirilgan 3-rasmda keltirilgan grafik asosida xulosa qilish mumkinki, banklar jami kreditlari va mikroqarzlarning o'sish sur'atlari muammoli kreditlar hamda mikroqarzlarning o'sish sur'atlariga ma'lum darajada mutanosiblik kasb etadi. Biroq ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralarning o'sish sur'atlariga muammoli kreditlar o'sish sur'atlariga nisbatan nomutanosib tarzda oshgan. Ushbu holat 2020-yilda pandemiya sharoitida kreditlarni tasniflash bo'yicha alohida qabul qilingan chora-tadbirlarning natijasi sifatida izohlanadi (4-jadval).

4-jadval. Muammoli kreditlar uchun tuzilgan maxsus zaxiralar qoldig'i¹²

	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025
Muammoli kreditlar va mikroqarzl	5 785	16 974	13 992	16 621	21 185
Maxsus zaxiralar	3 687	14 876	6 526	6 106	9 628
Maxsus zaxiralar bilan ta'minlanganlik darajasi	64%	88%	47%	37%	45%
O'rtacha foizli marja	5,1%	5,9%	6,1%	6,0%	6,3%

Ehtimoliy yo'qotishlar uchun zaxiralar bilan ta'minlanganlik darajasi 2021–2022-yillarda sezilarli darajada oshgan bo'lib, bu pandemiyaning salbiy ta'siri oqibatida yuzaga kelgan. Keyingi yillarda esa ushbu ko'rsatkich 2 baravarga kamayib, so'nggi 3 yilda o'rtacha 37–47 foiz atrofida shakllangan.

Kredit portfelini samarali boshqarish va optimal diversifikatsiyalash natijalari, tabiiyki, kredit portfelining samaradorligi hamda rentabelligida o'z ifodasini topadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, pandemiya davridan keyingi 4 yilda banklarning kredit portfeli ko'rsatkichlarida keskin o'zgarishlar kuzatilmagan. O'sish tendensiyasi hamda foizli marja ko'rsatkichlari ijobiy dinamikani namoyon etgan.

Amaliyotda muammoli kreditlar shartlarini qayta ko'rib chiqish, ya'ni restrukturizatsiya qilish kredit portfelining sifatiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatsa-da, bank va mijoz o'rtasidagi hamkorlikni saqlab qolish bilan birga kreditning qaytmaslik riskini keskin kamaytiradi.

Rasmiy ma'lumotlarga asosanib o'tkazilgan tadqiqot natijalari banklar tomonidan kredit portfelini samarali boshqarish, muammolarni oldini olish va ularni bartaraf etish yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari suradi:

1. Kredit portfelining diversifikatsiyalash ko'lamini kengaytirish, ya'ni mijozlar tarkibining tarmoqlar, sohalar, hududlar va kredit turlari bo'yicha xilma-xilligini oshirish.

2. Davlat ulushi yuqori va modernizatsiyaga muhtoj korxonalar qarzdorligining portfeldagi salmog'ini maksimal darajada kamaytirish.

3. Yirik kreditlarda muammolarni hal etishda iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlardan keng foydalanish, huquqiy choralarni esa faqat oxirgi imkoniyat sifatida qo'llash.

4. Monitoring jarayonlarida tashqi omillar ta'sirida yuzaga keladigan risklarni oldindan baholashda kompleks yondashuvni qo'llash, jumladan, mijoz ishtirokida debitor qarzdorliklarni undirish mexanizmlarini kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни “Банклар ва банк фаолияти тўғрисида” (янги таҳрири) Тошкент ш., 2019 йил 5 ноябрь, ЎРҚ-580-сон, <https://www.lex.uz/acts/4581969>;
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Ўзбекистон – 2030” стратегияси, Тошкент ш., 2023 йил 11 сентябрь, ПФ-158-сон, <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
3. Али оглу А. О. Статистическое исследование непосредственного поддержания деятельности малого бизнеса в регионах // EPRA International Journal of Economic and Business Review (JEPR). - 2022. - Т. 10. – нет. 6. - С. 30-33;
4. Умаро З.А., Отамуродов Х.Х., Сайфиддинов И.Ф. МОНОГРАФИЯ, Тижорат банклари кредит портфелини бошқаришни такомиллаштириш, Тошкент молия институти -Т, “Молия-иқтисод” нашриёти, 2021. С. 19.
5. Кузмина С.Н., Арзикулов О.А. Методы управления кредитным портфелем коммерческих банков. Вестник Кокандского университета, 2023 г. №9. ISSN: 2181-1695. С. 11-16.
6. Арзикулов О. А. Роль малого бизнеса в развитых странах//Экономика и общество.-2019.-Нет. 12. - С. 30-33
7. Sattarov O., Beknazarov E. GEP and its management in commercial banks. Monograph. -T.: EXTREMUM PRESS. 2011 y. - 82 b.

12 <https://cbu.uz/oz/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100